



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalarini misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодийёт тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

ko‘rsatdi. Kredit resurslariga kirishdagi gender nomutanosiblik, moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi hamda o‘qitish dasturlarining bozor ehtiyojlariga to‘liq mos kelmasligi asosiy muammolar sifatida aniqlandi.

Shu asosda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: garovsiz mikrokreditlar va kafillik fondlarini kengaytirish; “Ayollar daftari” tizimida tadbirkorlikka o‘tish monitoringini kuchaytirish; ta’lim dasturlarini bozor talabiga moslashtirish; hamda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish.

Umuman olganda, moliyaviy, tashkiliy va ijtimoiy mexanizmlarni uyg‘unlashtirish Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini yanada rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi. «2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida» PF-60-sonli Farmoni.— lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Andijon viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha «yo‘l xaritalari»da belgilangan vazifalar ijrosi to‘g‘risida SQ-876-IV-son Qarori. 10.02.2024. — lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinsiy kamsitish uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi O‘RQ-874-son Qonuni. 31.10.2023. — lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. «Tadbirkor ayollar qaysi hududda ko‘proq faoliyat yuritmoqda? » 2024. — stat.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholi soni bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar. 2024. — stat.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqi. 8-mart 2026. — gazeta.uz
7. United Nations Development Programme (UNDP). *Women’s Entrepreneurship in Uzbekistan: Assessment and Recommendations*. — New York: UNDP, 2025. — undp.org
8. World Bank. *Gender Equality Analysis in Uzbekistan 2024*. — Washington D.C.: World Bank, 2024. — worldbank.org

UDK: 330.341

**ENERGETIKA TARMOG‘I KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUARISH
RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ РЕСУРСОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ
СЕТИ**

**THEORETICAL FOUNDATIONS OF EFFECTIVE USE OF PRODUCTION RESOURCES
IN ENERGY NETWORK ENTERPRISES**

Abdulazizov Abdurashid Abduazim o‘g‘li
Toshkent davlat texnika universiteti, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Global iqtisodiyotdagi resurslar tanqisligi, raqamlashtirish trendlari va yashil iqtisodiyot prinsiplarining sohaga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida stohastik chegara tahlili, ma’lumotlarni o‘rab olish tahlili hamda iqtisodiy-matematik modellashirish kabi metodologik yondashuvlarning konseptual jihatlarini o‘rganilgan. Xorijiy, MDH va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari muhokama qilinib, O‘zbekiston energetika

tizimida resurs tejamliligini ta'minlash va intellektual boshqaruvni joriy etish bo'yicha ilmiy xulosalar hamda amaliy takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: energetika tarmog'i, ishlab chiqarish resurslari, resurs samaradorligi, stohastik chegara tahlili, yashil iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, Smart Grid, optimallashtirish.

В данной статье исследованы теоретико-методологические основы эффективного использования производственных ресурсов на предприятиях энергетической отрасли. Проанализировано влияние дефицита ресурсов в глобальной экономике, трендов цифровизации и принципов зеленой экономики на данную сферу. В рамках исследования изучены концептуальные аспекты таких методологических подходов, как стохастический анализ границ, анализ среды функционирования и экономико-математическое моделирование. На основе обсуждения научных взглядов зарубежных ученых, исследователей стран СНГ и местных авторов сформированы научные выводы и практические предложения по обеспечению ресурсосбережения и внедрению интеллектуального управления в энергетической системе Узбекистана.

Ключевые слова: энергетическая отрасль, производственные ресурсы, эффективность ресурсов, стохастический анализ границ, зеленая экономика, цифровая трансформация, Smart Grid, оптимизация.

This article investigates the theoretical and methodological frameworks for the efficient utilization of production resources in energy sector enterprises. The impact of resource scarcity in the global economy, digitalization trends, and green economy principles on the sector is analyzed. Within the scope of the study, the conceptual aspects of methodological approaches such as Stochastic Frontier Analysis, Data Envelopment Analysis, and economic-mathematical modeling are explored. Based on the discussion of scientific views of foreign, CIS, and local scholars, scientific conclusions and practical recommendations have been formulated to ensure resource efficiency and implement smart management in the energy system of Uzbekistan.

Keywords: energy sector, production resources, resource efficiency, Stochastic Frontier Analysis, green economy, digital transformation, Smart Grid, optimization.

Dunyo miqyosida an'anaviy energiya resurslarining cheklanganligi va ularga bo'lgan yalpi talabning muttasil ortishi global barqarorlikka jiddiy xavf solmoqda. Bunday sharoitda xalqaro bozorda mahsulot va xizmatlar tannarxini kamaytirish hamda milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshirish bevosita resurs tejovchi ilg'or texnologiyalarni joriy etish samaradorligiga bog'liq bo'lib qolmoqda. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilayotgan «Yashil iqtisodiyot» prinsiplari hamda barqaror rivojlanish maqsadlari global energetika tarmoqlari zimmasiga uglerod neytralligini ta'minlash va ekologik yuklamani kamaytirish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni yuklamoqda. Shu bilan birga, so'nggi yillardagi geosiyosiy o'zgarishlar va transformatsion inqirozlar energiya xavfsizligini ta'minlash hamda ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish prinsiplarini har bir davlatning strategik ustuvor vazifasiga aylantirdi.

Xalqaro energetika agentligi (IEA) va global tahliliy markazlarning so'nggi ma'lumotlari ushbu tendensiyalarni yaqqol statistik ko'rsatkichlar bilan tasdiqlaydi. Xususan, global elektr energiyasiga bo'lgan yalpi talab o'rtacha yillik 3.3% dan 3.7% gacha sur'atda o'sib bormoqda va ushbu ko'rsatkich umumiy energiya resurslariga bo'lgan talabga qaraganda ikki barobar tezroq yuqorilamoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi jadal sanoatlashuv, raqamlashtirish hamda sun'iy intellekt va ma'lumotlar markazlarining (Data Centers) kengayishi hisobiga global elektr energiyasi iste'moli rekord darajaga — 29 000 teravatt-soatdan (TWh) ortiq ko'rsatkichga yetdi.

Global energiya samaradorligining asosiy mezoni hisoblangan birlamchi energiya sig'imining (Energy Intensity) yaxshilanish sur'ati hozirda 1.8% – 2.0% atrofida qayd etilmoqda. Garchi bu ko'rsatkich avvalgi yillardagi pasayishdan so'ng o'sishni ko'rsatayotgan bo'lsa-da, COP28 xalqaro iqlim konferensiyasida qabul qilingan va 2030-yilgacha energiya samaradorligini ikki barobar oshirishni ko'zda tutuvchi yillik 4% lik global maqsadli ko'rsatkichdan hali ham sezilarli darajada

ortda qolmoqda. Energetika sohasiga kiritilayotgan global investitsiyalarning umumiy hajmi 3.3 trillion dollardan oshgan bo‘lib, shundan qariyb 2.2 trillion dollari bevosita toza va resurs tejovchi texnologiyalarga yo‘naltirilmoqda. Bu esa global bozorda energetika korxonalarining ishlab chiqarish resurslaridan oqilona va samarali foydalanish borasidagi ilmiy va metodologik asoslarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Global tendensiyalarga hamohang ravishda, O‘zbekiston Respublikasining energetika tarmog‘i ham tub islohotlar va chuqur tarkibiy transformatsiyalar bosqichini boshdan kechirmoqda. Mamlakat iqtisodiyotining jadal o‘shishi va demografik yuklamaning ortishi tarmoq korxonalari zimmasiga ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini keskin oshirish bo‘yicha strategik vazifalarni qo‘ymoqda. Energetika vazirligining rasmiy ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yakunlari bo‘yicha respublikada jami elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 86,7 milliard kVt·soatga yetib, 2024-yilga nisbatan 6 foizlik barqaror o‘shish sur‘atini namoyish etdi. Ushbu dinamika 2026-yilning birinchi choragida ham saqlanib qolib, dastlabki uch oyda ishlab chiqarish hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yana 7 foizga oshdi va 23,3 milliard kVt·soatni tashkil qildi.

Biroq, respublika energetika korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarida tabiiy gaz va an‘anaviy yoqilg‘i resurslarining ulushi hamon yuqoriligicha qolayotgani, tarmoq ichki resurslarini optimallashtirish va texnologik yo‘qotishlarni kamaytirish metodologiyasini takomillashtirishni talab etadi. Resurs tejash borasidagi tizimli islohotlar natijasida mamlakatda joriy etilgan maxsus energiya tejankorlik dasturlari hisobiga birgina yilning o‘zida 2,7 milliard kVt·soat elektr energiyasi va 2 milliard kub metr tabiiy gaz iqtisod qilinishiga erishildi. Milliy iqtisodiyot tarkibida sanoatning ulushi ortayotgan bir sharoitda, GDP tarkibidagi energiya sig‘imini (Energy Intensity) kamaytirish korxonalarining ishlab chiqarish aktivlari, xomashyo va moliyaviy resurslaridan qay darajada samarali foydalanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birga, milliy energetika tarmog‘ining resurs bazasini diversifikatsiya qilish maqsadida «yashil generatsiya» loyihalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalari orqali ishlab chiqarilgan toza energiya hajmi 16,8 milliard kVt·soatga yetkazilib, umumiy ishlab chiqarishning qariyb 20 foizini tashkil etdi. Quyosh va shamol energiyasining o‘zi esa 2,1 barobarga o‘shib, milliy energiya tizimida 10,5 milliard kVt·soatlik ko‘rsatkich bilan rekord qayd etdi va qo‘shimcha 3,2 milliard kub metr tabiiy gaz resursini tejash imkonini berdi. Shunga qaramay, kechki pik yuklamalar davrida iste‘molning 12 680 MVtlik yangi rekord darajalarini qayd etayotgani energetika tarmoq korxonalarida mavjud ishlab chiqarish resurslarini boshqarishning innovatsion, nazariy va metodologik asoslarini shakllantirish zaruriyatini yanada dolzarblashtirmoqda.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari hamda adabiyotlar sharhi jarayonida aniqlangan qonuniyatlar energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. M. Porter va neoklassik iqtisodiy maktab vakillari ta’kidlaganidek, resurs samaradorligi korxonaning strategik raqobatbardoshligini belgilovchi bosh omildir. Biroq, an‘anaviy sanoat tarmoqlaridan farqli o‘laroq, energetika korxonalarida ishlab chiqarish resurslarini (ayniqsa, yoqilg‘i va xomashyoni) optimallashtirish faqatgina ichki boshqaruv qarorlariga bog‘liq emas. Energetika obyektlari tabiiy monopoliya xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli, ularning resurs iste‘moli tarkibi va xarajatlari ko‘p jihatdan davlatning tarif siyosati hamda institutsional muhiti bilan cheklanadi. Demak, energetika korxonalarida resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish uchun, birinchi navbatda, bozorda erkin narxlash va raqobat muhitini yaratuvchi institutsional islohotlar zanjiri ta’minlanishi zarur.

Raqamlashtirish va «Sanoat 4.0» inqilobida Y. Chjan tomonidan o‘rganilgan intellektual boshqaruv tizimlari (Smart Grid) nazariy jihatdan resurs isrofgarchiligini minimal darajaga tushirish imkonini beradi. Ammo muhokama jarayonida shuni ta’kidlash joizki, bunday yuqori texnologik va intellektual tizimlarni amaliyotga joriy etish energetika korxonalaridan juda katta hajmdagi boshlang‘ich kapital resurslarini talab qiladi. O‘zbekiston kabi transformatsiya bosqichidagi iqtisodiyotlarda moliyaviy resurslarning cheklanganligi sharoitida, raqamli texnologiyalarni bir

vaqtning o‘zida barcha energetika zanjiriga tatbiq etish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lishi mumkin. Shu sababli, resurslarni boshqarish metodologiyasida investitsiyalarni optimallashtirishning iyerarxik modelini qo‘llash, ya’ni dastlab yuqori yo‘qotishlar kuzatilayotgan taqsimlash tarmoqlarini (skada tizimlari orqali) raqamlashtirish, keyingi bosqichlarda esa ishlab chiqarish quvvatlarini integratsiyalash maqsadga muvofiqdir.

Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish hamda sohadagi global va milliy tendensiyalarni muhokama qilish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish tushunchasi zamonaviy iqtisodiy sharoitda shunchaki texnik-texnologik tejamkorlik doirasidan chiqib, korxonaning strategik raqobatbardoshligini, institutsional moslashuvchanligini hamda ekologik barqarorligini ta’minlovchi ko‘p faktorlik tizim sifatida talqin qilinishi lozimligi asoslandi.

2. Energetika korxonalarining resurs samaradorligini baholashda stohastik chegara tahlili va ma’lumotlarni o‘rab olish tahlili kombinatsiyasidan foydalanish tarmoqdagi haqiqiy yo‘qotishlar hajmini tasodifiy tashqi omillardan ajratgan holda aniq o‘lchash hamda resurslarni qayta taqsimlash chegaralarini belgilash imkonini beradi.

3. Global «Yashil iqtisodiyot» va dekarbonizatsiya talablari sharoitida resurs unumdorligi koeffitsiyenti faqat moliyaviy xarajatlar bilan emas, balki atrof-muhitga chiqarilayotgan issiqxona gazlari (CO₂) yuklamasini kamaytirish indeksi bilan integratsiyalashgan holda baholanishi strategik zaruriyat hisoblanadi.

4. Energetika korxonalarida texnologik resurs tejamkorligining real samaradorligi bevosita tashqi institutsional muhitga — davlat monopoliyasini kamaytirish, bozor mexanizmlari va tarif siyosatini optimallashtirish darajasiga uzviy bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Porter M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press, 1985. – pp. 62-85.
2. Kumbhakar S. C., Lovell, C. A. Knox. Stochastic Frontier Analysis. Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – pp. 115-143.
3. Allcott Hunt. Consumers and Energy Efficiency: Behavioral Science and Energy Policy. Washington, D.C.: Brookings Institution Press, 2011. – pp. 45-68.
4. Zhang, Yong. Smart Resource Management in Industry 4.0: Models and Technologies. Beijing: Science Press, 2019. – pp. 204-221.
5. Jouhara H. Waste Heat Recovery Technologies and Circular Economy in Energy Intensive Industries. London: Academic Press, 2021. – pp. 89-112.
6. Волошин В. И. Реформирование и институциональная модернизация энергетической инфраструктуры. Москва: Наука, 2014. – с. 142-165.
7. Альбертов И. А. Эконометрическое моделирование эффективности использования топливно-энергетических ресурсов. Санкт-Петербург: ГУЭФ, 2017. – с. 78-95.
8. Михайлова Светлана Интеллектуальный энергоменеджмент на промышленных предприятиях. Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2020. – с. 110-134.
9. Xidirov O.S. Iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 56-78 b.
10. Tursunov N.R. Sanoat korxonalarining resurs tejamkorligini oshirishga xorijiy investitsiyalarni jalb etish strategiyasi. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 120-138 b.
11. Mustafoyev Sh.A. Elektr energetikasi korxonalarini «yashil iqtisodiyot» tamoyillari asosida barqaror rivojlantirish. Toshkent: Tafakkur, 2022. – 94-115 b.
12. Karimov A. Milliy energetika tizimini raqamli transformatsiyalash sharoitida boshqaruv samaradorligi. Toshkent: Moliya, 2021. – 45-63 b.
13. Aliyev R. Ishlab chiqarish korxonalarida yoqilg‘i-energetika resurslarini optimallashtirishning iqtisodiy-matematik modellari. Toshkent: TDTU, 2018. – 102-124 b.